



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022 yil 10 yanvar

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi : Shartnoma.
2. Loyihaning nomi: Yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha.
3. Loyihani taqdim qilgan tashkilot: Tibbiyot birlashmasi
4. Loyiha bo'yicha ma'lumotlar:

O'zbekiston tuman Tibbiyot birlashmasi hamda "O'zbektelekom" Aksiyadorlik kompaniyasi Farg'ona filiali o'rtasida "Yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha", tuzish rejalashtirilgan 2-sonli shartnoma loyihalari amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida, "Avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha xaridlar" uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

**XULOSA:**

O'zbekiston tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan taqdim etilgan mazkur shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi, yuqoridagilarga asosan mazkur shartnoma loyixalarini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq.

O'zbekiston tuman YXKM  
bosh yuriskonsulti



B.Turg'unov



